

HOZIRGI ZAMONAVIY O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FAOL QO'LLANIB KELAYOTGAN QO'SHMA FE'LLARNING SEMANTIK VA STRUKTUR TAHLILI

Shohida Tahirova Nasriddinovna

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti.

Tel: (99) 8145270 E-mail: shohidatohirova2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18505991>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilshunosligiga yangi kirib kelgan va zamonaviy tilshunoslikda faol qo'llanib kelayotgan qo'shma fe'llar tadqiqi va ular hosil qilgan fe'lli birikmalarning semantik va struktur xususiyatlari ochib beriladi. Fe'lli birikmalarning aynan qo'shma fe'llarning og'zaki va yozma nutqdagi rivoji, ma'no imkoniyatlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. O'zbek tilidagi yangi nashdagi izohli lug'atdan, o'zbek tili so'zlashuv uslubidagi so'zlar va termilardan, ijtimoiy tarmoqlardagi yozma matnlaridan olingan misollar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy tilshunoslik, fe'lli birikmalar, qo'shma fe'l, yetakchi fe'l, ko'makchi fe'l, neologizm, semantik ma'no, struktur xususiyat, o'zlashma so'zlar, og'zaki va yozma nutq, mustaqil ma'no, qo'shimcha ma'no, atash sema, ifoda sema, vazifa sema, statistika, izohli lug'at.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ И СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ СЛОЖНЫХ ГЛАГОЛОВ, АКТИВНО ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В статье раскрывается исследование сложных глаголов, которые недавно вошли в узбекское языкознание и активно используются в современной лингвистике, а также семантические и структурные особенности образованных ими глагольных сочетаний. Обсуждается развитие и смысловые возможности глагольных сочетаний, а именно сложных глаголов в устной и письменной речи. Это подтверждается примерами из толкового словаря нового издания на узбекском языке, слов и терминов разговорного стиля узбекского языка, письменных текстов в социальных сетях.

Ключевые слова: Современное языкознание, глагольные сочетания, сложный глагол, ведущий глагол, вспомогательный глагол, неологизм, семантическое значение, структурная особенность, заимствованные слова, устная и письменная речь, самостоятельное значение, дополнительное значение, номинативная сема, экспрессивная сема, функциональная сема, статистика, толковый словарь.

SEMANTIC AND STRUCTURAL ANALYSIS OF COMPOUND VERBS ACTIVELY USED IN MODERN UZBEK LINGUISTICS

Annotation. The article reveals the study of compound verbs that have recently entered Uzbek linguistics and are actively used in modern linguistics, as well as the semantic and structural features of the verbal combinations they form. The development of verbal combinations, specifically compound verbs in oral and written speech, and their semantic possibilities are discussed. This is evidenced by examples taken from the explanatory dictionary in the new edition of the Uzbek language, words and terms in the colloquial style of the Uzbek language, written texts on social networks.

Keywords: Modern linguistics, verb combinations, compound verb, leading verb, auxiliary verb, neologism, semantic meaning, structural feature, borrowed words, oral and written speech, independent meaning, additional meaning, nominative seme, expressive seme, functional seme, statistics, explanatory dictionary.

Kirish: Mazkur ilmiy maqolamiz hozirgi zamonaviy o'zbek tilshunosligida faol qo'llanib kelayotgan fe'lli birikmalar, jumladan qo'shma fe'llarning semantik va struktur xususiyatlarini o'rganib, tahlil qilish masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. O'zbek tiliga yangi kirib kelgan, so'zlashuvda ommalashgan qo'shma fe'llarning semantik-struktur tahlil qilinishi tilshunosligimizda yangilik hisoblanadi, bu esa o'zbek tili lug'at boyligining yangi, zamonaviy o'zlashma so'zlar, atamalar orqali boyishi, ularning semantik-struktur xususiyatlarini tadqiq etish muammosini qo'yadi.

Maqolada qo'shma fe'llarning semalari, strukturaviy xususiyatlar, affiksalar bilan qo'llanishi, ularning kontekstda ifodalanishi haqida ma'lumot keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek tilida fe'llarning semantik xususiyatlarini A.Navoiy, A.Fitrat, A.G'ulomov, A.Hojiyev kabi olimlar o'rganishgan.

A.Navoiyning "Muhokamat-ul lugatayin" asarida yuzdan ortiq fe'llarning semalarini tahlil qilish orqali fors va o'zbek tili imkoniyatlarini solishtirgan. Fe'llarning umumiy birlashtiruvchi semalari va farqlovchi semalarini badiiy asarlardan parchalar keltirish orqali izohlab bergan.

A.Fitrat esa qo'shma fe'llarning hosil bo'lishi va ularning imlosi haqida batafsil ma'lumot beradi. Olim qo'shma fe'llar ikki qismdan tashkil topishini, birinchi qism so'zning leksik ma'nosini, ikkinchi qism unga qo'shimcha ma'no ifodalashini aytadi. U "Ma'noning og'irligi birinchi fe'lda bo'lib, ikkinchi fe'lning ma'nosi unga "qayd" bo'lib qoladir"¹. Fe'lning ikkinchi qismiga fe'lning barcha kategorial shakllari qo'shilishini aytadi. Olim qo'shma fe'llarning birikmaga o'xshashini, ammo undan ot qismi kelishik qo'shimchalari olmasligi bilan farq qilishini aytadi. Masalan, *mumkin bo'ldi, do'st tutdim* qo'shma so'z, *mumkin bo'ldi* deb bo'lmaydi, *do'stni tutdim* esa so'z birikmasidir².

A.G'ulomov qo'shma fe'llar haqida shunday yozadi, ular bir leksik butunlikdan iborat bo'lib uning asosiy ma'nosi birinchi elementda bo'ladi, ikkinchi element yordamchi sifatida qo'llanishini aytadi. Qo'shma fe'lda tuslanish ikkinchi elementda bo'lishini ta'kidlaydi: *o'qib chiqding, o'qib chiqdim* kabi.

A.Hojiyev fe'l so'z turkumining barcha xususiyatlarini tahlil qilib o'z qarashlarini "Fe'l", "Ko'makchi fe'llar", "To'liqsiz fe'l", "O'zbek tilida qo'shma, juft, takroriy so'zlar" asarlarida keltirgan. Olim asarlarida qo'shma fe'llarni ikki usul orqali ot+fe'l va fe'l+fe'l tipida yasallishini o'rganib chiqadi. Olim o'zidan oldingi adabiyotlarda fe'l yasallishida sintaktik usul eng samarali usul deb olinganiga qo'shilmaydi. Bunday holda bir fe'l bir nechta ko'makchi fe'llar bilan yoki, bir nechta yetakchi fe'llar bilan kela olishini nazarda tutadi.

O'zbek tili grammatikasida so'zning strukturasi - so'zning sostavi, so'z tarkibi haqida murakkab va munozarali fikrlar yuradi. O'zbek tilida so'z strukturasi juda murakkab yoki juda sodda bo'lishi mumkin. So'z strukturasi o'zak so'z yasovchi affiks va forma yasovchi affiksdan hosil bo'lishi mumkin. Hatto bir asosdan va birdan ortiq yasovchi affiks va birdan ortiq forma yasovchi ishtirok etishi mumkin. So'z strukturasi qanday komponentlardan tashkil topishdan qat'iy nazar morfologik struktura deyiladi.

Fe'l so'z turkumining qo'shma fe'llar tuzilishi haqida A.Hojiyev, Sh.Shukurov kabi olimlar o'rganishgan. O'zbek tilida qo'shma fe'llar kompozitsiya usuli orqali hosil qilinadi. Bu usul orqali qo'shma fe'llarni yasash ikki usul orqali amalga oshiriladi. Ot + fe'l tipidagi va fe'l + fe'l tipidagi qo'shma fe'llar tushuniladi.

¹ Nurmonov A. Ozbek ilshunosligi tarixi. Toshkent.-2002 B.152

² Nurmonov A. Ozbek ilshunosligi tarixi. Toshkent.-2002 B.153

Ot+fe'l tipidagi qo'shma fe'llarida fe'l bo'lmagan so'z bilan *qil, bo'l, ayla, et*, kabi fe'llarning birikishidan hosil bo'ladi. Haqiqatdan ham qo'shma fe'llarning ko'p qismi *qil, et, ayla, bo'l* fe'llarning boshqa so'z bilan birikishidan hosil bo'ladi. Ammo bu fe'llar bilan birikkan har qanday birikmani ham qo'shma fe'l deb bo'lmaydi. Bu fe'llar bog'lama vazifasida ham keng qo'llanadi. Ular bunday vazifada qo'llanganda qo'shma fe'l hisoblanmaydi. Qiyoslang: *O'qituvchi edi – o'qituvchi — o'qituvchi bo'ladi*. Bunda o'qituvchi bo'ladi birikmasi qo'shma so'z emas. Bu yerda yangi so'z hosil bo'lmayapti. *Tasdiq qildi, tasdiq bo'ldi* tillari esa qo'shma fe'l hisoblanadi. Qo'shma fe'l ekanligini *qil, bo'l* fe'llarini *-lan, -lash* affikislari bilan almashtirish mumkinligini ham ko'rsatadi: *tasdiqlashdi, tasdiqlandi*.

Fe'l+fe'l tipida birikan turi haqida gapirganda yetakchi hamda ko'makchi fe'l nazarda tutiladi. Bu yerda qo'shma fe'l va ko'makchi fe'lning bir-biridan farqli jihatlariga ahamiyat berishimiz kerak. Qo'shma fe'l deganda ot+fe'l va fe'l+fe'l birikishidan hosil bo'luvchi yangi ma'noli leksik birlik nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Hozirgi zamonaviy o'zbek tilshunosligida faol qo'llanib kelayotgan qo'shma fe'llarning semantik-struktur jihatdan o'rganishni muhim deb hisobladik. Tahlilga olingan qo'shma fe'llar internet tarmoqlarida va so'zlashuv uslubida faol ishlatiladi. Qo'shma fe'l leksemalarini uch turi: atash sema, ifoda sema, vazifa semalari orqali tahlil qilamiz. Har bir sema misollar orqali tahrirlanadi. Qo'shma fe'l strukturasida qanday hosil bo'lishini misollar orqali ko'rib chiqamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi zamonaviy o'zbek tilshunosligida faol qo'llanib kelayotgan qo'shma fe'llarning leksemalarini uch tur orqali ya'ni atash sema, ifoda sema, vazifa semalari orqali tasnif qilib, fe'l strukturasida qo'shma fe'llar qaysi so'z turkumlaridan, qanday usullar orqali hosil qilinganligini tahlil qilamiz

1. *Yutubda ko'rmoq* - YouTube, - videomateriallar taqdim etuvchi veb-sayt. YouTubeda videolavhalardan tortib, havaskor videolar, videobloglargacha taqdim etish mumkin³. Videomateriallarini ko'rish uchun ishlab chiqarilgan veb-sayt uning atash semasi hisoblanadi. Ifodasi semasi "neologizm" va "so'zlashuv uslubiga xos" ekanligidir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Sen mening videolarimni Yutubda ko'r. Yutubda ko'rsatilgan videolarning ko'pi befoyda videolardir. Yutub ko'rishdan ko'ra kitob o'qish samaralidir.*

Yutubda ko'rmoq - ot so'z turkumi, fe'l so'z tukumi ot+fe'l tipida hosil bo'lgan. -da kelishik affiksi shakl yasovchi affiks, Kompozitsiya usuli orqali qo'shma fe'l hosil bo'lgan.

Obyektli fe'l hisoblanadi. -moq fe'lning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

2. *Blogger bo'lmoq* - blog inglizcha: *weblog* — "veb-jurnal" so'zidan, bu veb-saytning bir ko'rinishi bo'lib, undagi maqolalar xronologik tarzda yoziladi. Aksariyat bloglarda ma'lum bir mavzuga tegishli yangilik yoki sharh chop etiladi; boshqalari esa shaxsiy onlayn kundalik sifatida xizmat ko'rsatadi⁴. Atash ma'nosi internet bloglarida ijod qiluvchi shaxs. "Neologizm" va "so'zlashuv uslubiga xos" ekanligi ifoda semasini bildiradi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Blogger bo'lish sen o'ylagandek oson ish emas. Men kelajakda blogger bo'lishni xohlayman. Zamonaviy kasblardan blogger bo'lish, eng keng tarqalgan kasbdir.*

Blogger bo'lmoq - ot so'z turkumi, fe'l so'z tukumi ot+fe'l tipida hosil bo'lgan.

Kompozitsiya usuli orqali qo'shma fe'l hosil bo'lgan. Obyektli fe'l hisoblanadi. -moq fe'lning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

³<https://uz.wikipedia.org>

⁴<https://uz.wikipedia.org>

3. *Xaker bo'imoq* – ingliz tilidan olingan bo'lib “hack” buzmoq, kesmoq, qirqmoq degan ma'noni anglatadi. Kompyuter dasturlarni yaratishga o'ta ishqiboz bo'lgan kishi. Kompyuter dasturlari va qoidalarini buzuvchi – huquqi bo'lmagani holda kompyuter dasturlariga o'zgartirishlar kiritadigan shaxs, yuqori darajali programmist.⁵ Atash semasi kompyuter dasturlarini, ma'lumolarni buzuvchi shaxs. Ifoda semasi “neologizm” va “ilmiy uslubga xos” ekanligidir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Xaker bo'lish eng kuchli dasturchilarning ishidir. Eng kuchli tizimni ham xakerlar buza olishadi. Xaker bo'lish bu- kasb emas.*

Xaker bo'imoq - ot so'z turkumi, fe'l so'z tukumi ot+fe'l tipida hosil bo'lgan. Kompozitsiya usuli orqali qo'shma fe'l hosil bo'lgan. Obyektli fe'l hisoblanadi. -moq fe'lining infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

4. *Instagramda ko'rmoq* – instagram rasm va videolarni ulashish uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq.⁶ Atash semasi internet tarmoqlarida video va rasmlarni ulashuvchi dastur. Ifoda semasi “neologizm” va “so'zlashuv uslubiga xos” ekanligi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Instagramda ko'rgan video rasmlarim adabiyotga xos edi. O'z ijod namunalaringizni instagramda ko'rdim, kanalingizda yoritib borgansiz.*

Instagramda ko'rmoq - ot so'z turkumi, fe'l so'z tukumi ot+fe'l tipida hosil bo'lgan.

Kompozitsiya usuli orqali qo'shma fe'l hosil bo'lgan. Obyektli fe'l hisoblanadi. –da kelishik affiksi shakl yasovchi affiks, -moq fe'lining infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

5. *Dron uchirmoq* - dron uchuvchidan masofaviy buyruqlarni oladigan yoki avtonom parvoz uchun dasturiy ta'minotga tayanadigan har qanday havo vositasini anglatadi.⁷ Atash semasi uchuvchisiz harakat qiladigan masofadan turib boshqariladigan textik vositadir. Ifoda semasi “neologizm” va “ilmiy uslubga xos” ekanligi tushuniladi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Ruxsatsiz dron uchurish qonunga xilof. Maxfiy operatsiyalarni bajarish uchun dron uchurishadi. Dron uchurish huquqi harbiy xizmatchilarga beriladi.*

Instagramda ko'rmoq - ot so'z turkumi, fe'l so'z tukumi ot+fe'l tipida hosil bo'lgan.

Kompozitsiya usuli orqali qo'shma fe'l hosil bo'lgan. Obyektli fe'l hisoblanadi. –da kelishik affiksi shakl yasovchi affiks, -moq fe'lining infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

6. *Skype ulanmoq* - Skype (s k a i p) Microsoft kompaniyasining Skype Technologies bo'limining videokonferentsiya va ovozi qo'ng'iroqlar va tezkor xabar almashish, fayllarni uzatish, statsionar va mobil telefonlarga shug'ullanuvchi tizimi.⁸ Atash semasi internet tarmoqlarida videokonferensiyalar o'tqazish uchun mo'ljallangan dastur. Ifoda semasi “neologizm” va “ilmiy uslubga xos ekanligi” ekanligi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Pandemiya vaqtida skypega ulanib onlayn ma'lumotlarni o'rgandim.*

Video konferensiyada qatnashish uchun skypega ulanish kerak. Skypega ulanish uchun internet bo'lishi shart.

Skype ulanmoq - ot so'z turkumi, fe'l so'z tukumi ot+fe'l tipida hosil bo'lgan.

Kompozitsiya usuli orqali qo'shma fe'l hosil bo'lgan. Obyektli fe'l hisoblanadi. -moq fe'lining infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

⁵<https://uz.wikipedia.org>

⁶<https://uz.wikipedia.org>

⁷<https://uz.wikipedia.org>

⁸<https://uz.wikipedia.org>

7. *Vindovs o' rnatmoq* - Windows o' rnatmoq— shaxsiy kompyuterlar va ish stantsiyalari uchun Microsoft tomonidan Windows NT oilasi tomonidan ishlab chiqilgan operatsion tizim.⁹

Atash ma'nosi kompyuterga turli vazifalarni, ishlarini bajaruvchi dasturni o' rnatish tushunadi. Ifoda semasi “neologizm” ekanligidir.

Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo' llanadi. *Yangi kompyuter sotib olganda unga vindovs o' rnatiladi. Vindovs11 ning imkoniyatlari avvalgi barchasida kengroq. Men yangi kompyuterimga vindovs o' rnataman.*

Vindovs o' rnatmoq - ot so' z turkumi, fe' l so' z tukumi ot+fe' l tipida hosil bo' lgan.

Kompozitsiya usuli orqali qo' shma fe' l hosil bo' lgan. Obyektli fe' l hisoblanadi. -moq fe' lning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

8. *Market ochmoq* - marketing ingliz tilida “market” – “bozor”, “bozordagi harakat”, “faoliyat” - korxonaning tovarlar ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda boshqarish shakli.¹⁰ Atash ma'nosi bozor yoki do' kon ochish tushuniladi. Market ochish so' zining ifodasi semasi “neologizm” ekanligidir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo' llanadi.

-*Yangi market ochilibdi, borib ko' ramizmi.*

-*Bu narsalarni qayerdan oldingiz?*

-*Albatta, yangi ochilgan marketdan oldim. Qo' shni yuring, mahallada yangi market ochilarkan, o' shana borib ko' ramiz.*

Market ochish - ot so' z turkumi, fe' l so' z tukumi ot+fe' l tipida hosil bo' lgan.

Kompozitsiya usuli orqali qo' shma fe' l hosil bo' lgan. Obyektli fe' l hisoblanadi. -moq fe' lning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

9. *Tenderda yutmoq* - tender ingliz tilidan olingan bolib, “tend” xizmat ko' rsatmoq degan ma' noni bildiradi. Xalqaro va mahalliy bozorda savdo qilish va xizmat ko' rsatish uchun o' tkaziladigan ochiq va yopiq turdagi tanlov.¹¹ Atash ma' nosini savdo-sotiq yoki tadbirkorlikka oid tanlovda qatnashishib, imkoniyatni qo' lga kirgizishdir. Ifoda semasi uning “neologizm” ekanligi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo' llanadi. *Kompaniya katta yo' l qurilishini tenderda yutib oldi. Tenderda yutish uchun mustahkam reja, hamda loyiha zarurdir. Bu mukammal loyiha, bu bilan tenderda yirishimiz aniq.*

Tenderda yutuq - ot so' z turkumi, fe' l so' z tukumi ot+fe' l tipida hosil bo' lgan. -da kelishik affiksishakl yasovchi affiks. Kompozitsiya usuli orqali qo' shma fe' l hosil bo' lgan.

Obyektli fe' l hisoblanadi. -da o' rin-payt kelishigi bilan qo' llangan, -moq fe' lning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

10. *Investitsiya kiritmoq* - nemis tilidagi “invertition”, lotin tilidagi investire-keltirmoq, sarp o' bermoq kabi ma' nolarni anglatadi. Mamlakat ichkarisida yoki chet elda, foyda ko' rish maqsadida biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog' i kapital qo' yish kiritish va shunday kapitalning o' zi.¹² Atash ma' nosini biron foydali, manfaat keltiradigan ishga pul tikishni bildiradi. Ifodasi emas uning “neologizm” hamda “so' zlashuv uslubiga xos” ekanligidir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo' llanadi. *Mamlakatimiz rivojlanishi uchun chet eldan investitsiya kiritish kerak. Investitsiya kiritmoqchi bo' lgan investorlarni korxonamizga taklif qiling. Viloyatlarda qurilayotgan korxonalarni tez ishga tushirish uchun investitsiya kiritish kerak.*

⁹<https://uz.wikipedia.org>.

¹⁰<https://uz.wikipedia.org>

¹¹O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-tom. T harfi. T.: 2020. - B. 65.

¹²O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. I harfi. T.: 2020. - B. 206.

Investitsiya kiritmoqda - ot soʻz turkumi, feʼl soʻz tukumi ot+feʼl tipida hosil boʻlgan.

Kompozitsiya usuli orqali qoʻshma feʼl hosil boʻlgan. Obyektli feʼl hisoblanadi. -moq feʼlning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

11. *Litsenziya olmoq* - litsenziya lotin tilidagi “licentia” - ruxsatnoma, huquq; 1) vakolatli davlat organlari tashqi savdo harakatlarini olib borish uchun beriladigan ruxsatnoma. Eksport va importni, valyuta sarflarini nazorat qilish usullaridan biri. Odatda, bir yilga beriladi; 2) texnikaviy, iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun shartnoma asosida beradigan ruxsati.¹³ Atash maʼnosi tadbirkorlik qilish uchun yoki xususiy faoliyatlar uchun davlatning vakolatli organlari tomonidan ruxsatnoma olish tushuniladi. Ifoda semasi “neologizm” va “shevaga xos” ekanligidir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qoʻllanadi.

Yangi shifoxona ochish uchun litsenziya olishim kerak. Litsenziya olishning ham oʻziga yarashatartib qoidalari mavjud. Xususiy taʼlim maktabini ochish uchun litsenziya olib, keyin ish boshlash kerak.

Litsenziya olmoq - ot soʻz turkumi, feʼl soʻz tukumi ot+feʼl tipida hosil boʻlgan.

Kompozitsiya usuli orqali qoʻshma feʼl hosil boʻlgan. Obyektli feʼl hisoblanadi. -moq feʼlning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

12. *Diler topmoq* - ingliz tilidan olingan boʻlib, dealer- birja dalloli degan maʼnoni bildiradi; 1) tovarlar oldi-sotdisi bilan shugʻullanuvchi, oʻz nomidan va oʻz mablagʻi hisobidan harakat qiluvchi jismoniy shaxs yoki firma. 2) qimmatbaho qogʻozlar, valyutalar, qimmatbaho metallar oldi-sotdisi bilan shugʻullanuvchi, oʻz nomidan va oʻz mablagʻi hisobidan harakat qiluvchi fond birjasi aʼzosi, jismoniy yoki yuridik shaxs.¹⁴ Atash maʼnosi savdo-sotiq bilan shugʻullanuvchi shaxs. Ifodasi semasi “neologizm” ekanligidir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qoʻllanadi. *Kelajakda shaxsiy biznesimni boshlashim uchun men diler topishim kerak. Diler topish juda ham qiyin ish. Katta loyihalarga tajribali diler topish, eng muhim masalalardan biridir.*

Diler topmoq - ot soʻz turkumi, feʼl soʻz tukumi ot+feʼl tipida hosil boʻlgan.

Kompozitsiya usuli orqali qoʻshma feʼl hosil boʻlgan. Obyektli feʼl hisoblanadi. -moq feʼlning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

13. *Inflyasiyaga uchramoq* - lotin tilidagi inflation- shishish, koʻtarilish, shish, boʻrtish degan maʼnoni anglatadi. Muomaladagi qogʻoz pullar massasining taklif qilinayotgan real tovarlar hajmiga nisbatan haddan tashqari ortib ketishi va pulning qadrsizlanishini va buning natijasida tovar va xizmatlar bahosining koʻtarilishi, pulning xarid qilish quvvatining pasayishi.¹⁵

Atash maʼnosi pulning qadrsizlanishidir. Ifodasi “neologizm” ekanligidir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qoʻllanadi. *Inflyasiyaga uchrash MDH mamlakatlarini ham xavotirga soldi. Har bir tadbirkor oʻz mahsulotning inflyasiyaga uchrashini oldindan bilish kerak. Iqtisodiyotda tez-tez uchrab turadigan hodisa bu- inflyasiyaga uchrashidir.*

Inflasiyaga uchramoq - ot soʻz turkumi, feʼl soʻz tukumi ot+feʼl tipida hosil boʻlgan.

Kompozitsiya usuli orqali qoʻshma feʼl hosil boʻlgan. Obyektli feʼl hisoblanadi. -ga kelishik affiksi shakl yasovchi affiks, -moq feʼlning infinitiv shaklini hosil qiluvchi affiks.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendation). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi zamonaviy oʻzbek tilshunosligida faol qoʻllanib kelayotgan qoʻshma feʼllar soʻzlar lugʻat boyligimizni faol rivojlantirishda davom etmoqda.

¹³Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2-tom. L harfi. T.: 2020. - B. 502.

¹⁴Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-tom. D harfi. T.: 2020. - B.615.

¹⁵Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2-tom. I harfi. T.: 2020.- B. 220.

Biz mana shu ilmiy maqolamizda yangi va zamonaviy soʻzlarni semantik-struktur xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bu tahlil orqali ogʻzaki va yozma matnlar yaratishda, yangi soʻzlarning maʼnolarini tushunishda, qoʻshma feʼllarning struktur xususiyatlarini aniqlashda nazariy maʼlumot boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va oʻzbek tilshunosligi. – Toshkent: "Universitet", 1997. – B. 28.
2. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi.- Toshkent: "Oʻzbekiston"- 2002.-B.152-153.
3. Ayub Gʻulomov ilmiy merosi. 2-kitob. Toshkent: 2006. – B.-101.
4. Hojiyev A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft, takroriy soʻzlar. Toshkent:1963.- B. 33-38.
5. Hojiyev A. Feʼl.Toshkent: "Fan"- 1973. B.7-9.
6. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. boʻy. fals. fan. dok. diss. Qarshi: 2004. B. 126.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-2-4 tom. B. 606-671
8. Shukurov Sh. Feʼl tarixidan. Toshkent: 1970. B.102.

INTERNET MATERIALLARI:

9. Natlib.uz
10. Natlib.diss.uz
11. Ziyouz com.
12. Wikipedia /org